

“O‘ZSUVLOYIHA” AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARIGA!

**“O‘ZSUVLOYIHA” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy
yig‘ilishi o‘tkazilishi bo‘yicha**

Xabarnoma

“O‘ZSUVLOYIHA” AJ Kuzatuv kengashining 2024-yil 14-martdagi yig‘ilishi qaroriga asosan 2024-yil 5-aprel kuni soat 11:00 da o‘tkazilishi lozim bo‘lgan jamiyat aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kvorum bo‘lmaganligi sababli 2024-yil 17-aprel kuni soat 11:00 ga qoldirildi.

Kun tartibiga quyidagi masala kiritilgan:

“O‘ZSUVLOYIHA” AJning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana – aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishida qatnashish huquqiga ega jamiyat aksiyadorlarining reestri 2024-yil 1-aprel holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig‘ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar o‘zi bilan passport, aksiyadorlar vakillari esa – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma (jismoniy shaxslar uchun – notarial tasdiqlangan, yuridik shaxslar uchun – ushbu yuridik shaxs tomonidan berilgan) bilan kelishlari shart.

Yig‘ilish Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Labzak ko‘chasi 1-A uyda joylashgan Jamiyat ma‘muriy binosinig majlislar zalida o‘tkaziladi.

Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilish qatnashchilarini ro‘yxatga olish 2024-yil 17-aprel kuni soat soat 10:00 da boshlanadi.